

INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI

Xolmatova Mehriniso

*Termiz Davlat Pedagogika institutining Xorijiy tillar fakulteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til ingliz tili ta'lim yo'nalishining
103-guruh talabasi*

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida turli metodlardan foydalanish orqali ingliz tilini o'rgatishning sifatini oshirish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktab, mahorat, metod, ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, kreativ, tasnif, innovatsiya, obyektiv, malaka.

Pedagogikaning rivojlangan tajribalari hamda ta'limda erishilgan yutuqlarni amaliyotga olib kirish bugungi kunning muhim shartlaridan hisoblanadi. Hozirda o'qituvchi o'z faoliyati davomida foydalana olishi mumkin bo'lgan ulkan tajribalar bazasi shakllangan va u kundun-kunga yanada boyib bormoqda. Lekin shunga qaramasdan, o'qituvchilar va bo'lg'usi kasb egalari tomonidan ana shu tajribalarni o'zlashtirib olishlari birmuncha mushkullik bilan amalga oshmoqda. Pedagogning mavqeyi ilg'or tajribalarni vujudga keltirishda va ularni kasbdoshlari o'rtasida ommalashtirishda, ayniqsa, ahamiyatlidir. Ta'lim beruvchi yangi ilg'or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etishda uning qimmatini hamda qay darajada samarali ekanligiga e'tibor berishi kerak.¹

pedagogik iqlimini yaratish, «qiziqish bilan o'qish» muhitini yaratish bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish yo'llarini muloqot psixologoyasi bilan yaqin aloqada izlash kerak degan fikrga olib keladi. O'quvchini kasbiy pedagogik faoliyatga o'qitish jarayonida bir vaqtning o'zida uni kasbiy pedagogik muloqot mahoratlariga ham o'rgatish kerak.

O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda tanlangan adabiyotlar, ma'lumotlar - umuman o'rgatiladigan materiallar - shunday bo'lishi kerakki u o'zuda ham leksik-grammatik va stilistik o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab olishi bilan bir qatorda og'zaki va adabiy nutq tuzilmalarini ham aks ettirishi kerak.

Kommunikativ mahoratlarning barchasini birdaniga o'rgatib bo'lmaydi. Kommunikativ ta'lim mahoratlarini o'rgatish jarayonini bir nechta bosqichga bo'lamiz.

Birinchi bosqichda o'quvchilar shaxsiy yoki o'qituvchilarni kasbiy yo'naltirilgan faoliyatlarini dinamik o'zgaruvchan holatlarda maqsadga yo'naltirilgan kuzatuvlarini hamda idrok etishlarini tashkil qilish kerak.

Ikkinchi bosqichning vazifasi o'quvchilar o'qituvchilari bilan birgalikda ishlab chiqqan o'quv-kommunikativ topshiriqlarni amalga oshirish jarayonida kasbiy yo'naltirilgan mashqlarni bajarishidir.

Uchinchi bosqichda o'quvchilar tomonidan kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ faoliyatni mustaqil amalga oshirishni tashkil qilish.²

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilarga-ingliz-tilini-o-qitishda-qo-llaniladigan-metodlar>

2 .CHET TILINI O'RGATISHDA KOMMUNIKATIV PRINSIPLAR HAMDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ROLI

Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании»

Nargiza Abdug'Ofurovna Jumaniyazova

Shaxzoda Turg'Unovna Mavlonova